UO‘K: 636.32.033:636.082

QORAKO‘L QO‘YLARINING MAHSULDORLIK KO‘RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH

Seytmusayeva Zuxra Abatbayevna
q.x.f.d. (PhD), assistent,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. *Maqolada qorako‘l qo‘ylarini o‘sish va rivojlanish hamda mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash natijalari keltirilgan. Shuningdek, qo‘zilarni teri xususiyatlari bo‘yicha qo‘zilarni baholash, teri xususiyatlari bo‘yicha baholash usullari, naslli qo‘chqorlarni avlod sifati bo‘yicha baholash, qorako‘l qo‘ylarini o‘sish va rivojlanish hamda mahsuldorligi bo‘yicha baholashda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *qorako‘l qo‘yi, o‘sish, rivojlanish, mahsuldorlik, baholash, teri, nasl, avlod*

Аннотация. *В статье представлены результаты оценки каракульских овец по показателям роста, развития и продуктивности. Также рассматриваются оценка ягнят по состоянию кожи, методы оценки по состоянию кожи, оценка племенных баранов по качеству потомства, а также аспекты, на которые необходимо обращать внимание при оценке каракульских овец по состоянию роста, развития и продуктивности.*

Ключевые слова: *каракульские овцы, рост, развитие, продуктивность, оценка, смушка, племя, потомство*

Summary. *This article presents the results of evaluating Karakul sheep for growth, development, and productivity. It also discusses lamb skin condition evaluation, skin condition evaluation methods, evaluation of breeding rams for offspring quality, and aspects to consider when evaluating Karakul sheep for growth, development, and productivity.*

Key words: *Karakul sheep, growth, development, productivity, grade, smushka, breeding, offspring*

Kirish. Qorako‘l qo‘ylari boshqa qo‘y zotlariga qaraganda cho‘l va sahro yaylovlarida butun yil fasllarida boqishga yaxshi moslashgan. Qorako‘l qo‘ylari o‘simlik qoplami siyrak, sho‘r suvli, qurg‘oqchil yaylovlarda yoz, kuz va qish fasllarida mutlaqo ko‘k ozuqalarni iste'mol qilmasdan, urchish, tez etiluvchanlik, jadal o‘sish va rivojlanish xususiyatlarini saqlagan holda, juda qimmatli mahsulotlar (qorako‘l teri, go‘sht, jun, po‘stinbop teri va sut) berish xususiyatiga ega.

Qorako‘l qo‘ylarini mahsuldorlik xususiyatlari jihatidan baholashda boshqa qishloq xo‘jaligi hayvonlariga nisbatan murakkab hisoblanib, ularni baholashda ko‘plab belgilar hisobga olinishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Naslchilik ishlarini olib borish eng yaxshi qo‘ylarni nasl uchun muttasil tanlab olish, yaroqsizlarini suruv tarkibidan chiqarish, ularning irsiy xususiyatlarini mustahkamlash uchun sifatli mahsulot beradigan qo‘ylarni maqsadli juftlashni amalga oshirishga qaratiladi.

Tanlash ishlarining asosiy usuli qo‘zilarni 1-3 kunligida baholash bo‘lib, o‘stirishga qoldirilgan qo‘chqor qo‘zilar 15-20 kunligida va naslli qo‘ylar 1,5 yoshligida qo‘shimcha baholanadi.

Tadqiqot uslublari. Qorako‘l qo‘zilarini 1-3 kunligida barra teri xususiyatlari bo‘yicha baholash “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma (2015-yil) asosida amalga oshiriladi [6].

Qorako‘l qo‘ylarini turli yoshdagi, fiziologik holatdagi va davrda oziqlantirish me’yorlari belgilanib, ratsion tuziladi [1].

Qorako‘l qo‘ylarining turli yosh davrlaridagi mutlaq, nisbiy hamda kunlik o‘sish ko‘rsatkichlari umumqabul qilingan formulalar asosida aniqlanadi.

Eksteryer o‘lchamlari tug‘ilganda, 21 kunlikda, 4,5, 6, 12, 18 oyliklarda (yag‘rin balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko‘krak chuqurligi, kengligi va aylanasi, poycha aylanasi) o‘lchov tayog‘i va lentasi, tana tuzilish indekslari zootexniyada qabul qilingan formulalar orqali aniqlanadi [3].

Qo‘chqorlarning jun mahsuldorligini bahorgi, kuzgi va yillik jun qirqimi miqdorini o‘lchash yo‘li bilan aniqlandi [2].

Sovliqlarning sutdorligi ulardan olingan qo‘zilarning tirik vaznining o‘zgarishiga qarab aniqlanadi. Bunda 1 kg tirik vazni o‘sishi uchun 5 l sut sarflanishi hisobida aniqlanadi. Bundan tashqari kunlik sog‘im, nazorat sog‘im o‘tkazish orqali aniqlanadi.

Qo‘ylarning go‘sht mahsuldorligini baholashda: so‘yimdan oldingi tirik vazn, gavdaning va ichki yog‘ning og‘irligi, so‘yim og‘irligi, so‘yim chiqimi. Tajribadagi qo‘ylarning go‘sht mahsuldorligi nazorat so‘yim o‘tkazish orqali, (8 oylik, 12 oylik va 18 oylikda) tarozida tortib aniqlanadi [4].

Olingan ma’lumotlarga variatsion statistika usullarida [5] o‘rtacha ko‘rsatkich (X), o‘rtacha ko‘rsatkich xatosi (Sx), o‘zgaruvchanlik koeffitsiyentini (Cv) aniqlash yo‘li bilan matematik ishlov berildi.

Natijalar va tahlillar. Teri xususiyatlari bo‘yicha qo‘zilarni baholashda quyidagilar e’tiborga olinadi.

Qorako‘l ko‘zi terilarning qimmati uning sathida qalamgul, donagul, yol gul jingalaklarining bo‘lishi, ularning teri sathida tartibli joylanishi va jun-tola qoplamining sifatiga qarab belgilanadi.

Qorako‘l qo‘zilari terisi sathida turli shakldagi yarim doira, qovurg‘asimon, yassi qalam gullar qancha uzun va tartibli joylashgan bo‘lsa, teri shuncha qimmatli hisoblanadi.

Dona gullar o‘zining tuzilishiga ko‘ra qalam gullarga o‘xshamaydi.

Sifatsiz gullarga halka, parma, no‘xatgul, silliq va shaklsiz gullar kiradi.

Qorako‘l qo‘zilarini tanlashda gul shakllaridan tashqari, ularning quyidagi belgilariga e'tibor beriladi:

• Jinsi, rang, tusi va rangbarangligi, qora qo‘zilar rangining tekisligi, sur qo‘zilar surligining namoyonlik darajasi va jun tolalarining uchki oqchil qismi va ostki pigmentlangan qismi o‘rtasidagi ranglar keskinligiga;

• gul jingalaklarining o‘lchamiga: qora rangda mayda gul o‘rta gul katta gul;

• gul uzunligiga: qisqa (kalta), o‘rta, uzun;

• jun – tola qoplamining sifatiga (ipaksimonligi, pigmentlanish darajasi va yaltiroqligi) – kuchli, me'yorida va etarsiz.

Elita va birinchi sinfga mansub naslli qo‘zilarning terisidagi jun-tola qoplami quyuq, terisi pishiq, zich va moyli bo‘lishi lozim.

Qorako‘l gullarining teri ustida yondosh-konsentrik va yondosh–to‘g‘ri tartibda joylashgan bo‘lsa terilar yuqori sifatli va qimmatli hisoblanadi.

Yuqoridagi asosiy xususiyatlarni baholash, ularni e’tiborga olish qora, ko‘k, sur va boshqa ranglardagi qo‘zilar uchun umumiy hisoblanadi.

Rangdor qo‘zilarni teri xususiyatlari bo‘yicha baholashda quyidagilar e’tiborga olinadi.

Rangdor qo‘zilarni baholashda rangning toza va aniqligiga katta ahamiyat beriladi.

Ko‘k qo‘zilarni tanlashda rangbaranglikning kumushsimon va havorang bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Buxoro, Qoraqalpoq va Surxondaryo sur rangli qo‘zilarini baholashda surlikning rivojlanish darajasiga, jun tolalarining ostki qoramtil va oqchil uchlarining rangi o‘rtasidagi farqlanish keskinligiga, rangining tekisligiga, jun tolalari uchki qismlarining rangbarangliklar bo‘yicha tekis bo‘lishiga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Bulardan tashqari – qorako‘l qo‘zilarining sog‘lomligi, umumiy rivojlanishi, gavdasining katta-kichikligi, tana tuzilishining mutanosibligi, konstitutsiyasining mustahkamligi va hayotchanligini baholash lozim.

Gullarning shakllari va turlari, ularning teri yuzasida joylanish tartibiga ko‘ra qo‘zilar to‘rtta gul tiplariga bo‘linadi. Yarim doira, qovurg‘asimon va yassi qalam gul va o‘sik gul tipi.

Qo‘zilar, asosan gul va jun qoplami sifatiga hamda konstitusiyasiga qarab baholanadi.

Qo‘zilarni barra teri xususiyatlari bo‘yicha baholash usullari quyidagilardan iborat:

Baholash ikki xil: yakka va sinfli bo‘ladi. To‘liq yakka tarzda baholanayotgan qo‘zilarning barcha seleksion ahamiyatga ega bo‘lgan belgilari jurnalga yoziladi. Qisqa yakka baholanayotgan qo‘zilarning jinsi, rangi, tusi va rangbarangligi, gul tipi, gul o‘lchami, jun tola sifati, sinfi va qulog‘idagi sirg‘asining raqamlari jurnalda yoziladi.

Sinfli baholaganda bunday yozuvlar qilinmay, ularning gul tiplari va o‘lchami hamda sinfi aniqlanadi. To‘liq baholash naslli qo‘ylar suruvlarida va qo‘chqorlar sinovga qo‘yilgan otarlarda olib boriladi.

Baholash ochiq qo‘ralarda quyosh nurlari boniterning orqa tomonidan tushib turadigan sharoitda o‘tkaziladi.

Baholash paytida o‘stirish uchun qoldirilgan qo‘zilarning kuloqlariga en solish orqali gul tipi, gul o‘lchami, sinfi, rangdor qo‘zilarda rangi va tusi belgilanadi [6].

Naslli qo‘chqorlarni avlod sifati bo‘yicha baholashda quyidagilar e’tiborga olinadi:

Nasl uchun qimmatli rangbarangiliklardagi yarim doira, yassi, qovurg‘asimon gul tiplariga, o‘rta gul o‘lchamiga, elita va 1- sinfga mansub bo‘lgan qo‘chqorlar tanlanadi.

Buning uchun quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

-hamma rangdagi naslli qo‘chqorlar faqat naslli ota-onalardan kelib chiqqan, bir xil juftlashdan olingan bo‘lishi;

-qora qo‘chqorlar ushbu rangdagi qo‘ylarni juftlashdan olinishi;

-qora va ko‘k qo‘ylarni juftlashdan olingan qora qo‘chqorlar kelajakda ko‘k qo‘ylarga ishlatish uchun qoldirilishi;

-ko‘k qo‘chqorlar bir xil (ko‘k X ko‘k) va har xil (qora X ko‘k) juftlashdan olinishi;

-sur qo‘chqorlar rangi bo‘yicha faqat bir xil qo‘ylarni juftlashdan tanlanishi.

Naslchilik mas’uliyati cheklangan jamiyatlari qaysi rang va gul tipi bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘lsa, nasl uchun shu rang va tipdagi qo‘chqorlarni ishlab chiqishlari lozim.

Qo‘chqorchalarni 15-20 kunligida baholashda ularda gullar, rang, tuslarning va rangbarangliklarning saqlanishiga, jun-tola qoplamining sifatiga va umumiy rivojlanishiga, 4-5 va 12 oyligida qo‘chqorlar asosan umumiy rivojlanishiga, 18 oyligida esa rivojlanishi va jun-konstitusional tipiga qarab baholanadi.

Umumiy qo‘chqorlar salmog‘i suruv tarkibida 2-2,5% atrofida bo‘lishi lozim, tekshirishga esa shuncha miqdorda yosh qo‘chqorlarni qo‘yish kerakki, ular yoshi bo‘yicha yaroqsiz deb chiqarilgan qo‘chqorlar o‘rnini to‘ldirishlari lozim.

Qorako‘l qo‘ylarini o‘sish va rivojlanish hamda mahsuldorligi bo‘yicha baholashda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

1-jadval

Qorako‘l qo‘ylarining asosiy mahsuldorlik ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Serpushtlik , %		Tirik vazni, kg		Jun mahsuldorligi, kg	
	o‘rtacha	o‘zgaruv-chanligi	o‘rtacha	o‘zgaruv-chanligi	o‘rtacha	o‘zgaruv-chanligi
Qo‘chqorlar						
Tug‘ilganda	-	-	4,5	4,0-5,5	-	-
4,5 oylikda	-	-	27,5	23,0-35,0	0,8	0,5-1,0
18 oylikda	-	-	35,5	30,0-42,0	1,7	1,3-2,0
Katta yoshli	-	-	52,5	48,0-65,0	2,3	1,9-2,7
Qo‘ylar						
Tug‘ilganda	-	-	4,0	3,5-5,0	-	-
4,5 oylikda	-	-	24,0	20,0-30,0	0,6	0,5-2,2
18 oylikda	-	-	32,5	30,0-37,0	1,5	1,1-1,7
Katta yoshli	97,5	95-105	39,0	35,0-46,0	1,8	1,5-2,2

Oziqlantirishda qorako‘l qo‘ylarining yoshi, fiziologik holati, tirik vazni, yaylov hosildorligi va hokazolar hisobga olinadi.

Qorako‘l qo‘ylarining o‘sish xususiyatlarini baholashda turli yosh davrlaridagi mutlaq, nisbiy hamda kunlik o‘sish ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

Eksteryer ko‘rsatkichlarini baholashda tug‘ilganda, 21 kunlikda, 4,5, 6, 12, 18 oyliklarda yag‘rin balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko‘krak chuqurligi, kengligi va aylanasi, poycha aylanasi va tana tuzilish indekslari hisobga olinadi.

Qo‘chqorlarning jun mahsuldorligini baholashda bahorgi, kuzgi va yillik jun qirqimi miqdori, jundorlik koeffitsienti, junning morfologik tarkibi hisobga olinadi.

Sovliqlarning sutdorligi baholanganda ulardan olingan qo‘zilarning tirik vaznining o‘zgarishi, (bunda 1 kg tirik vazni o‘sishi uchun 5 l sut sarflanishi hisobida) kunlik sog‘im, nazorat sog‘im miqdori hisobga olinadi.

Qo‘ylarning go‘sht mahsuldorligini baholashda so‘yimdan oldingi tirik vazn, gavdaning va ichki yog‘ning og‘irligi, so‘yim og‘irligi, so‘yim chiqimi (8 oylik, 12 oylik va 18 oylikda) hisobga olinadi.

Xulosa qilib aytganda qorako‘l qo‘ylarini barcha xo‘jalik foydali belgilari bo‘yicha baholashni to‘g‘ri tashkil etish, ularda seleksiya ishlarini olib boorish, seleksiya-naslchilik rejalarini tuzish, ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorinbi bashoratlash hamda ulardan samarali foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Калашников А.П. и др. Норми рацион кормления селскохазяственних животних. –Москва. Расселхоз Академия, 2003. 359 с.
2. Калинин В.В. и др. Методика определения качества шерсти. –Москва 1970.
3. Кравченко Н.А. Разведение сельскохозяйственных животных. Изд-во сельхоз литературы, журналов и плакатов, 1963. 310 с.
4. Вениаминов А.А. и др. Методичкие рекомендации по изучеию мясную продуктивность овец. //Москва, ВАСХНИЛ, 1978. 45 стр.
5. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников // - Москва,1969. - С. 256.
6. Abatbayevna S. Z., Muratbayevna S. H. QORAQALPOQ SUR QORAKÓL QÓYLARINING RANGBARANGLIK VA GUL TIPLARI BÓYICHA SELEKSIYASI HAMDA TIRIK VAZN VA MAHSULDORLIK KÓRSATKICHLARINI BAHOLASH //GREAT BRITAIN-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2026. – Т. 1. – №. 12. – С. 32-36.
7. Seytmusayeva Z. A., Gaziyev A. O ‘RIKGUL VA QAMAR RANGBARANGLIGI BO‘YICHA DIFFERENSIYALANGAN JUFTLASHDAN OLINGAN AVLODLARNING GUL KO ‘RSATKICHLARI //Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 4. – С. 116-119.
8. Юсупов С.Ю. ва бошқалар. Қоракўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва кўзиларни баҳолаш (бонитировка қилиш) бўйича қўлланма // - Тошкент, 2015. - Б. 31.